“O‘zkimyosanoat” AJ iqtisodiyotimizning strategik tarmoqlaridan biri bo‘lgan tog‘-kon sanoati uchun kimyoviy reagentlarni mahalliylashtirish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda

// 08.09.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-iqtisodiyotimizning-strategik-tarmoqlarida

Tog‘-kon sanoati uchun import orqali olib kirilayotgan kimyoviy mahsulotlarni o‘zlashtirish masalalari yuzasidan Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda “O‘zkimyosanoat”AJ mutaxassislari o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda tog‘-kon sanoati ehtiyojlari uchun talab etiladigan kimyoviy mahsulot va reagentlarning importini qisqartirish, ularni mahalliy ishlab chiqarish asosida o‘zlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Tomonlar 2025-2028-yillarda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida innovatsiya, diversifikatsiya va investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali mahalliy korxonalar va texnoparklar negizida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko‘rib chiqdilar.

Yig‘ilishda qator muhim mahsulotlarni “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari negizida mahalliylashtirish yuzasidan takliflar muhokama qilindi.

Xususan, praestol 2500 va 854-Oltin saqlovchi ma’danni qayta ishlash jarayonida quyultirish jarayonini kuchaytirish uchun foydalaniladigan asosiy kimyoviy reagent, tiomochevina-Oltin tarkibidagi ma’danlarni qayta ishlash jarayonida ion almashinadigan qatronlardan oltinni desorbsiyalash jarayonida qo‘llaniladigan asosiy kimyoviy reagent hamda rudani boyitishda foydalaniladigan natriy sianid (quruq tuz) shular jumlasidandir.

Shuningdek, kalsiy va rux nitratlari, ko‘pincha polimetall rudalari va konsentratlaridan (mis, rux, oltin) qimmatbaho metallarni ajratishda ishlatiladigan natriy gidrosulfid (NaHS), oltinni uyumda ishqorlash jarayonida eritmadan oltinni cho‘ktirish uchun foydalaniladigan qo‘rg‘oshin nitrati kabi mahsulotlarni mahalliylashtirish yuzasidan fikrlashib olindi.

Uchrashuv yakunida ishchi guruh tuzish, korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini yaqindan o‘rganish, mahsulotlarni laboratoriya va sanoat sinovlaridan o‘tkazish, sertifikatlash va amaliyotga joriy etish bosqichlarini qamrab olgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati